

**XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT**  
(2020-yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumot)

**Doimiy aholi soni.** Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-iyul holatiga 1876,6 ming kishini tashkil etib, 2020-yil boshidan 10,1 ming kishiga yoki 0,5 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 622,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,2 %), qishloq aholisi soni 1254,1 ming kishini (66,8 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering**  
**2020-yil yanvar-iyun**

Doimiy aholi soni **10,1 ming kishiga** ko'paydi.


Tirik tug'ilganlar soni **15,9 ming nafarni** tashkil etdi.

**3,9 ming nafar** vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'limlarida **6,0 mingta nikoh** va **0,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

**Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar**  
(Yanvar-iyun, ming kishi)


	2019-y.	2020-y.
<b>Doimiy aholi soni</b>	<b>1846,5</b>	<b>1876,6</b>
Tug'ilganlar	15,3	15,9
Vafot etganlar	3,8	3,9
Aholining tabiiy o'sishi	11,5	12,0
Kelganlar	3,0	2,3
Ketganlar	3,8	4,1
Migratsiya saldos	-0,8	-1,8
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	7,7	6,0
Nikohdan ajralishlar, ming birlk	0,5	0,5
<b>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</b>		
tug'ilish	16,8	17,0
o'lim	4,1	4,2
aholining tabiiy o'sishi	12,7	12,8
tuzilgan nikohlar	8,4	6,4
nikohdan ajralishlar	0,6	0,5

**XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT**  
**DEMOGRAFIK HOLAT***(2020-yil yanvar-iyun)*


**Hududlar kesimida doimiy aholi soni**  
*(1-iyul holatiga)*

	2019-y.	2020-y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 846,5</b>	<b>1876,6</b>	<b>101,6</b>
Urganch sh.	142,5	144,7	<b>101,5</b>
Xiva sh.	91,1	92,5	<b>101,5</b>
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	161,9	164,9	<b>101,9</b>
Gurlan	146,3	148,5	<b>101,5</b>
Qo'shko'pir	169,5	172,1	<b>101,5</b>
Urganch	195,5	199,2	<b>101,9</b>
Hazorasp	190,1	193,9	<b>102,0</b>
Tuproqqal'a	55,0	55,2	<b>100,3</b>
Xonqa	183,7	186,6	<b>101,6</b>
Xiva	143,1	145,5	<b>101,7</b>
Shovot	167,3	170,0	<b>101,6</b>
Yangiariq	114,4	116,1	<b>101,5</b>
Yangibozor	86,1	87,4	<b>101,5</b>

**Hududlar kesimida aholi soni  
(yanvar-iyun)**



**Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi  
(2020-yil 1-iyul holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %)**



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-iyul holatiga eng ko'p aholi soni Urganch tumanida viloyat aholisi sonidagi ulushi 10,6 %ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Xazorasp tumanida 10,3 %ni, Xonqa tumanida 9,9 %ni va Qo'shko'pir tumanida 9,2 %ni tashkil etgan.

### **Xorazm viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-iyun)**



**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 15,9 ming nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarda faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 17,0 promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega oshganligi (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 16,8 promille bo'lgan) kuzatildi.


### Shaharlar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2020-yil yanvar- iyun)



"Tug'ilganlar soni, ming kishi"




"Tug'ilish koeffitsiyenti, aholiga nisbatan, promille"




*Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*


### Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (yanvar- iyun )



**Vafot etganlar.** 2020 yilning yanvar-iyun oylarida 3,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni  
va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar- iyun)**Vafot etganlar soni,  
ming kishiO'lim koeffitsiyenti,  
1000 aholiga nisbatan, promille

**Shaharlar va tumanlar kesimida go'daklar o'limi soni  
(2020-yil yanvar-iyun holatiga, kishida)**




2020-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 57,4 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,1 %i - o'simtalardan 4,7 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,3 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,1%i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,2 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 18,2 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 61,8 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 11,1 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 8,9 %i - tug'ma anomaliyalardan, 6,1 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 0,4 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 11,7 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.




**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi  
(2020-yil yanvar-iyun holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %da)**



- Qon aylanish tizimi kasalliklari
- O'simtalardan
- Boshqa kasalliklardan
- Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan
- Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan
- Nafas olish a'zolari kasalliklaridan
- Yuqumli va parazitlar kasalliklaridan

**O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot  
(2020 yil yanvar-iyun)**



**Tabiiy o'sish.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 12,0 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,4 ming kishiga (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 11,6 ming kishi bo'lgan) o'sgan.

**Tabiiy o'sish — 12,0 ming kishi.**




**Nikoh.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 6,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,4 promilleni tashkil etdi.

### Xorazm viloyati bo'yicha tuzulgan nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar- iyun)




**Nikohdan ajralishlar.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.

### Shaharlar va tumanlar kesimida nikoh tuzganlar va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (2020-yil yanvar- iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Ajrimlar sonida 2019 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangibozor tumaniga (53,3 %) va Urganch shahariga (4,7 %) to'g'ri kelmoqda.

### **Xorazm viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar- iyun)**



**Migratsiya.** 2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,3 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,8 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 0,8 ming kishi bo'lgan.

**Aholi migratsiyasi***ming kishi*

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar- iyun
Ko'chib kelganlar	3,0	2,3
Ko'chib ketganlar	3,8	4,1
Migratsiya saldosı	-0,8	-1,8

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 0,3 ming kishi), Qo'shko'pir (minus 0,3 ming kishi), Shovot (minus 0,2 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Urganch tumanida (plus 0,3 ming kishi) kuzatildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi.**